

Kafedra faoliyatiga nazar

Bugun 2-mart kuni TIQXMMI Qarshi filiali huzuridagi Akademik litseyning iqtidorli o'quvchilaridan iborat delegatsiya a'zolari institutimizda olib borilayotgan ilmiy faoliyat, talabalarga yaratilgan imkoniyatlar va laboratoriya qurilmalari bilan tanishishdi.



Kunning ikkinchi yarmida delegatsiya a'zolari institutimizning "Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasini faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Kafedra mudiri D.Qodirov o'quvchilarga kafedra umumiy faoliyati, tarixi, o'quv va o'quv laboratoriya xonalari hamda kafedrada mavjud bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari to'g'risida to'liq ma'lumot berdi.



Bundan tashqari kafedra tayanch doktoranti N.Abdug'aniev va kafedraning iqtidorli hamda faol talabasi S.Parpievalar o'zlarining bugungi kunda olib borayotgan ilmiy izlanishlari bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirishdi. Uchrashuv davomida delegatsiya a'zolari o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishdi.

ETvaQTEM kafedrasini tayanch doktoranti N.Abdug'aniev

TIQXMMI matbuot xizmati